

**MAKTABGACHA YOSGDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA
TAYYORLASHDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BILAN
MAKTAB O'RTASIDAGI ALOQANING MAZMUNI VA SHAKLLARI**

**СОДЕРЖАНИЕ И ФОРМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ШКОЛЫ И
ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ПРИ
ПОДГОТОВКЕ ДОШКОЛЬНИКОВ К ШКОЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ**

**CONTENT AND FORMS OF INTERACTION OF SCHOOL AND
PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN PREPARING
PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION**

Zulxumor Xamrayeva JDPI 1- bosqich magistranti

annotatsiya

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi aloqa ikki yo'nalishda olib boriladi. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktabning pedagoglar jamoasi o'rtasidagi aloqa. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalari va boshlang'ich sinf o'quvchilarini bir-birlariga yaqinlashtirish.

аннотация

Связь между дошкольной образовательной организацией и школой осуществляется в двух направлениях. Сближение детей дошкольной образовательной организации и учащихся начальных классов.

annotation

The connection between the preschool educational organization and the school is carried out in two directions. Rapprochement of children of a preschool educational organization and primary school students.

kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab o'rtasidagi aloqa, ikki yo'nalishda, bolalar, pedagoglar jamoasi, yaqinlashtirish.

ключевые слова: организация дошкольного образования, общение между школами, по двум направлениям, дети, коллектив педагогов, сближение.

keywords: organization of preschool education, communication between schools, in two directions, children, a team of teachers, rapprochement.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlashni amalga oshirish borasidagi asosiy vazifalari belgilandi:

maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalar uchun tayyorlov guruhlarini shakllantirish;

tayyorlov guruhlarining o‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta’lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini joriy etish; tayyorlov guruhlarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiradigan va bolalikdan kitob o‘qishga qiziqishni oshiradigan o‘quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o‘yinlar hamda o‘yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta’minlash;

ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalarning davlat talablariga muvofiq har tomonlama aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

tayyorlov guruhlarini tashkil etishda maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini keng joriy etish;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda maktabgacha ta’lim sohasida ham ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi boshqa davlat tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash kabi vazifalar belgilab olindi.

Va maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktab o‘rtasidagi aloqa ikki yo‘nalishda olib boriladi:

➤ Bolalar maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan maktabning pedagoglar jamoasi o‘rtasidagi aloqa.

➤ Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalari va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bir-birlariga yaqinlashtirish. Tarbiyachilar boshlang‘ich sinfda olib boriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishning mazmunini, o‘ziga xos tomonlari bilan tanishadilar, natijada maktabgacha ta’lim tashkilotida bolani maktab talabi darajasida tayyorlash istiqbollari belgilab olinadi. Maktabning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari katta va tayyorlov guruhlarida olib boriladigan ishlar mazmuni bilan tanishib boradilar va maktabda ta’lim berishda bolalar egallagan bilim, malaka va ko‘nikmalarga

asoslanadilar. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab pedagoglarining o'zaro aloqa o'rnatishlaridan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarni zamon talabiga javob beradigan darajada maktab ta'limiga tayyorlash uchun o'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha maktab bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish, bolalarning maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabda olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni chuqur tahlil qilib, bu sohada yuqori natijalarga erishishdir.

Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab pedagogik tashviqot, metodik va amaliy masalalar yuzasidan bir-biri bilan aloqa bog'laydi. Pedagogik tashviqot ishlari bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabga tayyorlov guruhi tarbiyachisining va birinchi sinfda olib boriladigan ta'limtarbiyaviy ishlar vazifasi bilan tanishtirishni, maktabga tayyorlov guruhi va 1-sinf dasturi mazmunini, tayyorlov guruhi bolalari va maktabdagi 1-sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtasidagi uzviy aloqaning pedagogik vazifasi maktabgacha ta'lim muassasasi ning tayyorlov guruhida va maktabning 1-sinfida olib boriladigan ta'limtarbiyaviy ishlarni amalga oshirishdagi faoliyat shakllari va usullari bilan o'zaro tanishishni taqozo etadi. Bu masalada maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhi tarbiyachilari maktabning 1-sinfida olib borilayotgan darslarni kuzatadilar va dars, ta'limiy faoliyatlardan keyin birgalikda yig'ilishib uni muhokama qiladilar, ayrim metodikalar bo'yicha seminar-praktikumlarda qatnashadilar: ilg'or tajribalar bilan o'rtoqlashish, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha yoki 1-sinfda bolalarga bilim berish bo'yicha pedagogik kengashlarni o'tkazadilar. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtasidagi aloqaning amaliy vazifasi, shundan iboratki, bir tomondan, o'qituvchi maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhiga borib o'zining bo'lajak o'quvchilari bilan tanishib boradi, ikkinchi tomondan, tayyorlov guruhi tarbiyachilari o'zlarining sobiq tarbiyalanuvchilarini birinchi sinfda qanday o'qiyotganini o'rganib boradilar. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtasidagi uzviy aloqa samarali bo'lishi uchun quyidagi shartlarga amal qilish lozim. maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtasidagi aloqa izchil amalga oshirilib borilishi, u uzoq muddatga

mo'ljallangan bo'lishi, amalga oshiriladigan ishlar, hal qilinadigan masalalar rejali tusda bo'lishi zarur. Hamkorlik asosini birgalikda ishlash bo'yicha tuzilgan istiqbol rejasi tashkil etib, unda o'zaro aloqaning bosh vazifasi, mazmuni, ish shakllari, vaqti, bajarish uchun javobgar shaxslar ko'rsatilishi lozim. Maktab bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti yil davomida manna shunday aloqa o'rnatib borishi natijasida ta'lim-tarbiyaviy ishlar yaxshi natija beradi.

Bolalarni maktab o'quvchilariga yaqinlashtirish shakllari ham xilma-xil: maktabga ekskursiya uyushtirish, sinf xonasiga, kutubxona, bayram ertaliklari o'tkazish va boshqalardir. Rejalar aniq, mazmunli bo'lsa va og'ishmay amalga oshirilib borilsa, birgalikdagi ishlar bo'yicha istalgan natijalarga, muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Bu esa bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda, ularning maktabda qiynalmay o'qib ketishlarida yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" qonuni O`.R.Q-595.16.12.2019 yil.
2. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 2019 yil 8 maydagi PQ-4312- son Qaroriga 1-ilova.
4. "Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida" Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-sonli "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga 1-ilova.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari" to'g'risida 132-sonli 9 mart 2020 yil.

6. “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi. Tuzuvchilar: Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Mahmudova D.T., va boshqalar. – Toshkent, 2018 yil.

Elektron ta’lim resurslari

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz) [www.](http://www.uz)
2. [pedagog. uz](http://pedagog.uz) [www.](http://www.uz)
3. [ziyonet. uz](http://ziyonet.uz)
4. [www. edu.](http://www.edu.uz)